

---

## XALQ XIZMATIGA KAMRBASTA INSONLAR - HAQIQIY VATAN HIMOYACHILARIDIR!



### **Xalq xizmatiga kamrbasta insonlar - haqiqiy Vatan himoyachilaridir!**

So'x tumanida 14 yanvar - Vatan himoyachilari kuniga bag'ishlab turli tadbirlar, davra suhbatlari, uchrashuvlar va badiiy kechalar tashkil etilib, o'tkazilmoqda. Tuman hokimligida bo'lib o'tgan sektorlar rahbarlari bilan uchrashuvda tuman hokimi Sayidbahrom Sayidmusayev tumanda faoliyat olib borayotgan sektor rahbarlari ish rejasiga nazar solib, ular ham chin ma'nodagi Vatan himoyachilari ekanliklarini qayd etib o'tdi.

Tuman hokimligining qimmatbaho sovg'alari va tashakkurnomalarini tuman sektorlari rahbarlari - tuman prokurori Sadirali Mirzokarimov, tuman ichki ishlar bo'limi boshlig'i Qosimjon Rahimberdiyev, tuman davlat soliq inspeksiyasi boshlig'i Faridjon Turaboyevlarga topshirib, tuman hokimi ularga samimiy minnatdorchilik bildirdi. Shuningdek, bunday sovg'alar Milliy gvardiya tuman bo'limi boshlig'i, tuman mudofaa ishlari bo'limi boshlig'i, tuman favqulodda vaziyatlar bo'limi boshlig'i va So'x televizion studiyasi katta muharriri Jahongir Sobirovlarga ham taqdim etildi.

### **So'x tumani hokimligi Axborot xizmati**













---

**[Bizni ijtimoiy tarmoqlarda kuzating](#)**

[Facebook](#) | [Telegram](#) | [Telegram murojaat](#) | [Youtube](#) | [Instagram](#)

2025-01-14 18:02:55